


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)


Viloyat bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7826,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 738,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 10,3 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 7087,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,1 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 1072,5 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 foizga kopaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chust, Pop va Chortoq va tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2017 yil
yanvar-dekabr



2018 yil
yanvar- dekabr




■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	738871,7	110,3	7087712,0	104,1
Namangan.sh	356563,6	109,5	2621982,7	103,2
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	665,7	120,1	183354,0	101,9
Kosonsoy	1433,3	96,4	531048,3	103,5
Namangan	560,2	3,9	310693,5	105,7
Norin	19135,0	93,1	457921,5	104,4
Pop	58093,1	130,5	394875,9	103,9
To`raqo`rg`on	38443,7	77,0	531343,3	104,9
Uychi	916,0	84,5	327392,7	102,6
Uchqo`rg`on	28035,4	85,4	340032,8	102,6
Chortoq	7417,6	129,1	319956,6	103,9
Chust	221211,0	173,9	560356,1	104,5
Yangiqo`rg`on	6397,0	13,9	508754,6	110,9

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar- dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (4913,5 ming.so`m), Chust (3036,4 ming.so`m) va Norin (3002,2 ming. so`m) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mingbuloq (1510,8 ming.so`m), Uychi (1597,6 ming.so`m) va Chortoq (1698,9) tumanlarida qayd etilgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2871,0 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	2871,0	102,7
Namangan.sh	4913,5	102,0
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	1510,8	100,1
Kosonsoy	2638,7	101,4
Namangan	1802,3	98,8
Norin	3002,2	102,1
Pop	2124,6	104,9
To`raqo`rg`on	2608,9	100,4
Uychi	1597,6	100,5
Uchqo`rg`on	2208,0	99,3
Chortoq	1698,9	102,4
Chust	3036,4	115,8
Yangiqo`rg`on	2443,8	100,2

2018 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,1 foizni tashkil etib, 89,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,8 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,1 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2018 yil yanvar-dekabr)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1965,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 3,8 foizga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar- dekabr oylari yakunlariga ko'ra 1165,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6% ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 59,3% ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	1965144,5	103,8	799348,5	112,8	1165796,0	98,4
Namangan.sh	1004466,9	107,2	420766,2	117,0	583700,7	101,0
<i>tumanlar:</i>						
Mingbuloq	8204,3	109,4	860,3	0,0	7344,0	97,9
Kosonsoy	17795,5	102,3	817,3	0,0	16978,2	97,6
Namangan	45912,1	88,7	1231,2	23,4	44680,9	96,1
Norin	3739,4	100,8	501,7	125,0	3237,7	97,8
Pop	22813,4	91,4	867,1	42,4	21946,3	95,8
To'raqo'rg'on	511595,6	99,6	300578,6	102,2	211016,9	96,2
Uychi	45240,5	90,5	568,7	22,2	44671,8	94,2
Uchqo'rg'on	24818,8	108,0	2734,7	0,0	22084,1	96,1
Chortoq	114480,0	96,0	0,0	0,0	114480,0	96,0
Chust	90623,5	143,4	70422,8	165,7	20200,7	97,7
Yangiqo'rg'on	75454,6	92,8	0,0	0,0	75454,6	95,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`shish sur`atida kamayishi kuzatildi: Namagan.t 88,7 %, Uychi 90,5%, Pop 91,4% va Yangiqo'rg'on 92,8% ga tumanlarda kamaydi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,6 foizga kamaydi va 1165,8 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 59,3 foizni tashkil qildi.